

## O'ZBEK TILIDAGI MILLIY SO'ZLARNING O'ZIGA XOSLIGI

### Keldiyorova Farangiz Akbar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 204-guruh talabasi  
farangizkeldiyorova911@gmail.com

**Annotatsiya:** Hozirgi o'zbek tili tarixan murakkab rivojlanish va shakllanish bosqichlarini boshidan kechirgan. O'zbek tili urug' va qabila tili, xalq tili, milliy til va ijtimoiy millat tili davrlarida bir qator qardosh tillar, shuningdek, chet tillar bilan aloqada bo'lган.

**Kalit so'zlar:** til, tarix, sheva, qardosh tillar, taraqqiyot, lug'at, ichki manba, turkiy til

O'zbek tili o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini o'z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko'ra, o'z qatlama negizlari asosida yangi so'zlar yasaldi, mavjud so'z ma'nolari kengaytirildi, ba'zi so'zlarga qo'shimcha vazifalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalarida turli davrlarda, ehtiyojga ko'ra, so'zlar qabul qilindi.

O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki manbalarigagina tayanib ish ko'rmanidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlama boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. O'zbek tili lug'at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o'yndaydi. Umuman har qanday til so'f holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o'zaro ma'lum munosabatda bo'lishi qonuniy holdir. Bunday munosabat aloqada bo'lган tillar rivojida ayniqsa uning lug'at tarkibida ma'lum izlarni qoldirishi mumkin. Shu sababli ham dunyodagi barcha tillar lug'at tarkibidagi, jumladan o'zbek tilining lug'at tarkibdagi o'zgarishlar uchun umumiyoq bo'lган ikki qonuniyat kuzatiladi:

- 1) eskini yangi bilan almashtirish;
- 2) boshqa tillardan so'z qabul qilish.

Demak, o'zbek tilining lug'at tarkibi o'z taraqqiyotida ikki manbagaga tayaqnadi: a)ichki manba; b) tashqi manba.

Demak, o'zbek tili leksik tarkibidagi so'zlar genetik jihatdan faqatgina qadimiy turkiy qabila tillari leksikasiga (umumturkiy so'zlarga) borib taqalmaydi. Unda o'z qatlama so'zlaridan tashqari boshqa tillardan turli davrlarda qabul qilingan so'zlar ham mavjud.

O'zbek tiliga boshqa tillar ta'siri ikki muhim hodisada ko'rindi:

1. O'zbek tiliga chet tildan kirgan so'zlarni qabul qilishda.
2. Chet tilga oid so'zlarni o'zbek tiliga moslashtirishda.

So'zlarning bir tildan boshqa bir tilga kirishi va singishi, shunchaki oddiy jarayon emas, balki murakkab lingvistik va ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog'liq qonuniyatdir. Tildan tilga so'z o'zlashishi uchun avvalo real sharoit lozim. Bunday sharoit tillarning o'zaro hamkorligi, ya'ni tillar orasidagi aloqalardir.

Hozirgi o'zbek tili tarixan murakkab rivojlanish va shakllanish bosqichlarini boshidan kechirgan. O'zbek tili urug' va qabila tili, xalq tili, milliy til va ijtimoiy millat tili davrlarida bir qator qardosh tillar, shuningdek, chet tillar bilan aloqada bo'lган.

Turkiy urug' va qabilalar tili juda qadimiya davrlarda O'rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo'lган. O'rta Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalq eroniy tillar guruhiya kiruvchi mahalliy til lahjalarida gaplashgan. Bu eroniy urug' - qabilalar, xalqlar - so'g'dlar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar, parfiyanlar, parikaniylar, xorazmiylar va boshqalarning tili bo'lган. Shuningdek qadimgi Baqtriya podsholigida grek tilida, shuningdek, grek va eroniy tillar qorishmasidan iborat bo'lган tildan ham foydalanishgan.

O'rta Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida eroniy til xarakteriga ega bo'lган qadimiya xorazm tili ham mavjud edi. Bu til bilan o'sha davr mahalliy turkiy tillar orasida ma'lum aloqa bo'lган. Tarixiy manbalarda VII-VIII asrlarda va undan oldin xorazm yozuvi keng tarqalganligini ko'rsatuvchi dalillar mavjud. XIII-XIV asrlarda Xorazm aholisi ikki tilda - turkiy va qadimiya xorazm tilida gaplashgani ma'lum. Qadimgi xorazm tili XIV asrlarga kelib o'zbek tiliga singishib ketdi. Natijada bu tilga oid ba'zi so'zlar hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan: xo'p (xo'b), bog', pochcha (pichchomi-dadam), osmon (osm), juft (er), ariq (ar-suv) va boshqalar.

O'zbek tili o'tmishda bir qator qardosh bo'lмаган tillar boshqa sistemadagi tillar bilan ham aloqada bo'lган. Bunday tillar fors-tojik va arab tillaridir. Shuningdek, o'zbek tili o'z rivojining milliy til va ijtimoiy millat tili davriga kelib rus tili bilan aloqa va hamkorlikka kirishdi va bu jarayon davom etmoqda.

O'zbek tilining chet tillar bilan aloqasi turli daraja va sifatiy ko'rinishlarga ega. O'zbek tili aloqada bo'lган ba'zi tillar o'zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirmagan. Jumladan, hind, qadimgi grek tillaridan o'zbek tiliga sanoqli so'zlargina kirgan. Masalan:

Hind tilidan:	Qadimgi grek tilidan:
But	Iqlim
ko'tvol	marvarid
lak//lok (rang)	marmar

nil	mo'lniyo//mo'miyon
nilufal//nilupol (nilufar)	nomus
baraqman (braxman)	afyun faylasuf
barcha arg'anun	bilur (billur)
bibi	buqalamun
paysa	diram//dirham zumrad
chandan//chandol (sandal)	daryok//taryok
tovus	
chaqmoq	
chit (mato)	
fonus	
qonun qandil	

Hind, grek, lotin, xitoy, mo'g'ul tillariga mansub ba'zi so'zlar Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi.

O'zbek tili o'zaro aloqada bo'lgan va ta'sirlangan fors-tojik tili, arab tili, rus tili o'zbek tili lug'at tarkibida sezilarli iz qoldirdi. Buning o'z sabablari bor. Bunday sabablarning muhimlaridan biri o'zbek tilining fors-tojik, arab va rus tillari bilan aloqasi natijasida o'zbek xalqi hayotida ikkitillilikning yuzaga kelganligidir.

Tillarning o'zaro aloqasi va hamkorligi ko'p holda bu tillar orasida so'z almashishga, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishiga sabab bo'ladi. Bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi uchun sharoit kerak. Bu sharoit ikki tilning shunchaki aloqasi, yonma- yon yashashi, hududiy yaqinlashishi emas, balki o'zro ta'siri, hamkorligi va bu asosda yuzaga keluvchi ikkitillilik hodisasiidir. O'zbek tili tarixda turkiy tillar oilasiga mansub qardosh tillar bilan, chunonchi, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, uyg'ur, turkman, ozarbayjon tillari bilan aloqada bo'lgan. Bunday aloqa hozir ham davom etmoqda. Mana shunday aloqa tufayli O'zbekistonning ko'pgina viloyatlarida o'zbek va qirg'iz tillarida, o'zbek va qozoq tilida, turkman va o'zbek tilida, tatar va o'zbek tilida, qoraqalpoq va o'zbek tillarida parallel gaplasha oluvchi ikki tilli aholi mavjud. Bunday genetik jihatdan aloqador bo'lgan ikki qardosh tilda gaplasha olish O'zbekistonda yashovchi aholi orasida qadimdan mavjuddir.

Xalqaro munosabatlar taraqqiyoti, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar va ularning samaralari ana shu xalqlarning tillari leksikasida namoyon bo'ladi. Bunday hodisalarning ahamiyati va roliga bag'ishlangan son-sanoqsiz tadqiqotlar mavjud. Lekin, shunga qaramay, bu boradagi bahs va munozaralar barham topmagan. Chunki so'z o'zlashtirish masalasida tilshunoslar mushtarak va qat'iy to'xtamga kelganlaricha yo'q.

Qariyb 300 yildirki, tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, chet so'zlarning o'zlashish sabablari va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi roli va vazifalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Dunyodagi rivojlangan tillarning deyarli hammasida ozmi-ko'pmi o'zlashgan so'zlar, iboralar uchrashi, hatto ayrim tillarning aralashib ketganlik xususiyatlari avvalo tilshunoslarning, qolaversa, tilga e'tibori bo'lган har bir kishining ham diqqatini o'ziga jalg qiladi. Ayniqsa, chet so'zlarning qabul qiluvchi til qonuniyatlariga tezda bo'ysunishi, yotligi bilinmay huddi ona tilinikiday moslashib ketaverishi kabi obyektiv omillar so'z o'zlashuvi masalasini tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi.

O'zbek tilida chet so'zlar miqdori 40 foizdan dan sal ortiqroq, shundan 26 foizdan sal ortiqrog'i rus tiliga tegishlidir. Umuman, o'zbek tilidagi o'zlashgan so'zlar miqdori uncha katta hissani tashkil etmaydi. Chunki rus va yevropa tillarining deyarlisida o'zlashgan so'zlar 60 foizdan kam emas. Buning ustiga, nomi o'zlashgan deb atalgan so'zlarning hammasi ham chetdan o'zlashavermagan.

Bir tildan boshqa tilga so'z o'tishi ijobjiy hol. Shunisi ham borki, rivojlanishi faqat o'z ichki imkoniyatlari doirasi bilan cheklangan biron-bir bo'lmagani kabi, rivojlanishi faqat tashqi imkoniyat - boshqa tillardan lisoniy birliklar olishga asoslangan til ham bo'lmaydi. So'z o'zlashtirish deganda boshqa tilning barcha so'zlarining olinishi emas, balki ulardan nehtiyojga muvofiqlarining olinishi tushuniladi. Shuning uchun ham so'z o'zlashtishi tillar rivojlanishining tashqi omillari sirasiga kiradi.

Darhaqiqat, tashqi olam to'la-to'kis so'z orqali elakdan o'tadi, tashqi olamning nomlanishi zarur bo'lган narsa-hodisalari so'z tomonidan "qidiriladi". Zero so'z - tilegalarining jamoaviy xotirasi, madaniy yodgorligi, xalq hayotining ko'zgusi. O'zlashtiriligan so'zlar ham ana shu sifatlardan holi emas. Ular shu xalqning turmush olamiga ochqich, umuman, o'zlashmalar barcha bilimlarga yo'l ochadigan kalitdir.

Ma'lumki, leksika va uning har xil qatlamlari o'z xarakteriga ko'ra turlicha "tovlanib", o'ziga xos lisoniy qiymat kasb etadi. Bu narsa leksikaning o'ziga xos murakkab lisoniy sath ekanligidan dalolat beradi. Har bir xalq va uning tilining boshqa xalqlar va ularning tili bilan o'zaro aloqadorligi ham leksikada aks etadi. Shu

bois til leksikasini ko'zguga o'xshatish joiz bo'ladi. Ko'zgu unga qaratilgan har bir narsaning aksini namoyish etgani kabi, til leksikasi ham ijtimoiy va ruhiy olamning barcha xususiyatlarini namoyish qiladi. Shu sabab ham jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy olamidagi har bir yangilik, har bir o'zgarish eng avvalo lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, leksika ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlarni, xalq bosib o'tgan tarixiy yo'lning izlarini o'zida aks ettiradi. Ayni paytda muayyan tilning lug'at tarkibini

tadqiq etishda chet til elementlarining mavqeい va amal qilish doirasi, o'ziga xos xususiyatlarini ana shu nuqtayi nazardan tahlil etish zaruratini paydo qiladi. Shuni aytish kerakki, lug'at tarkibining ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettirishida o'ziga xos qonuniyatlar amal qiladi. Negaki, o'zga xalqlar bilan madaniy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar ham tilda, ham uning leksikasida aks etadi. Bunday jarayon til lug'at tarkibida chet so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida arab tilidan o'zlashgan so'zlar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Bu so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibidagi o'zlashgan boshqa so'zlar qatlamida o'zining boyligi va ifodaliligi bilan ajralib turadi. Hazrat Navoiy arab tilining bu xususiyati haqida "Muhakamatul lug'atayn" asarida shunday deydi: " Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog'at tazyini bila mo'jizatirozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qdur".

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жомонов Р. Сўз ўзлаштиришдаги асосий лисоний омиллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. -№ 5.
2. Рахманова, А. (2023). Диалог культуры в осознании священных писаний человечества. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 617-623.
3. Рахманова, А. Х. Лекция—основной вид формы обучения. Ответственный за выпуск, 180.
4. Рахманова, А. Х. (2019). Исторический Факт И Художественное Мышление В Романах Д. Балашова. ББК 60 Н34, 16.
5. Рахманова, А. Х. (2008). Идея исторической вариативности и проблемы нравственного выбора в историческом цикле романов Д. Балашова" Государи Московские". Вопросы филологических наук, (5), 22-24.3. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. /А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдли. 2- жилд. М-ҳарфи. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
6. <https://daryo.uz/2021/04/10/soz-soylashda-va-ulardan-jumla-tuzishda-uzoq-andisha-kerak-abdulla-qodiriyning-ozbek-tiliga-doir-qarashlari>